

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60220300 – Tarix
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60220300 – Tarix

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ERGASHEV ODIL TURSUNOVICH

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti



A'zo: SIMONE MANTELLINI

University of Bologna (Italiya)

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260019
Xulosa raqami	1010
Xulosa sanasi	22.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi, 20-uy. Litsenziya: № 001455-03, 13.04.2006. Guvohnoma: MAS № 0000319, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Tarix
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60220300
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 001455-03, 13.04.2006
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60220300 – Tarix
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60220300 – History
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60220300 – История
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	masofaviy
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Tarixchi-sharqshunos, tarix fani o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	400 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi, 20-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Olib borilgan baholash davomida 60220300 – “Tarix” masofaviy bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv tizimi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari kompleks tahlil qilindi. Natijalar universitetda mazkur ta'lim dasturini boshqarish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma shakllantirilgani, uning faoliyatini zarur moddiy-texnik hamda moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha tegishli choralar belgilanganini ko'rsatdi. Shuningdek, ichki sifat monitoringi tizimi muntazam amalga oshirilayotgani, ta'lim jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va takomillashtirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarining izchil faoliyat yuritayotgani baholandi. Masofaviy ta'lim shakli uchun boshqaruv jarayonlarining raqamli platformalar orqali tashkil etilishi ta'lim sifati ustidan samarali nazoratni ta'minlash, ma'lumotlar almashinuvini tezkor yo'lga qo'yish hamda monitoring jarayonlarining shaffofligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga muvofiq shakllantirilganligi xulosa qilindi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Taqdim etilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv rejalari va fan dasturlari asosida ta'lim dasturining mazmuni har tomonlama tahlil qilindi. Baholash natijalari 60220300 – “Tarix” masofaviy bakalavriat ta'lim dasturi belgilangan tartibda ishlab chiqilib, tasdiqlanganini, uning maqsadi va kutilayotgan o'quv natijalari aniq hamda izchil belgilanganini ko'rsatdi. Shuningdek, ta'lim dasturining mazmuni Milliy malakalar ramkasi, kasbiy standartlar hamda davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq shakllantirilgani, fanlar tarkibi va o'quv yuklamasi bitiruvchilarda zarur kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgani baholandi. Dastur yakunida bitiruvchilarga “Tarixchi-sharqshunos, tarix fani o'qituvchisi” kvalifikatsiyasi berilishi

ta'lim mazmunining kasbiy yo'nalganligini ta'minlashi qayd etildi. Sharqshunoslik profilining tarix ta'limi mazmuniga integratsiya qilingani bitiruvchilarning tarixiy jarayonlarni kengroq ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, Sharq mamlakatlari tarixi va madaniyatini chuqur o'zlashtirish hamda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturi mazmuni belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga mosligi bilan tavsiflandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

Ta'lim jarayonini tashkil etish va bilimlarni baholash tizimiga oid hujjatlar hamda amaldagi mexanizmlar batafsil tahlil qilindi. Natijalar o'quv rejalari davlat ta'lim standarti va Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq ishlab chiqilganini, ta'limning maqsad va vazifalari, kutilayotgan o'quv natijalari hamda baholash mezonlari aniq belgilanganini ko'rsatdi. Shuningdek, masofaviy ta'lim jarayonida bilimlarni baholash elektron platformalar orqali shaffof va tizimli ravishda amalga oshirilayotgani, akademik halollik tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar amaliyotga joriy etilgani hamda nazorat jarayonlarining belgilangan tartiblar asosida olib borilishi e'tirof etildi. Masofaviy baholash jarayonida ta'lim oluvchilarni ishonchli identifikatsiya qilish mexanizmlarining qo'llanilishi baholash natijalarining xolisligi va ishonchliligini ta'minlash, akademik halollikni mustahkamlash hamda masofaviy ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, o'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni baholash tizimi akkreditatsiya mezonlarida nazarda tutilgan talablarni qamrab olishi xulosa qilindi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Talabalar faoliyatini tashkil etish yuzasidan taqdim etilgan hujjatlar hamda amaliy mexanizmlar kompleks o'rganildi. Tahlil natijalari qabul jarayonlari shaffof va aniq tartibga solingani, qabul parametrlari universitetning mavjud resurslari hamda ta'lim dasturi imkoniyatlariga mos ravishda belgilanganini, talabalar kontingenti harakatini boshqarish tartiblari amaldagi me'yoriy talablar asosida yo'lga qo'yilganini ko'rsatdi. Xususan, 400 nafar qabul parametri masofaviy ta'lim platformasining texnik quvvati va mavjud infratuzilma imkoniyatlari bilan muvozanatlashtirilgani ta'lim jarayonini barqaror tashkil etishga xizmat qilishi baholandi. Shuningdek, masofaviy ta'lim oluvchilar bilan uzluksiz muloqotni ta'minlovchi aloqa kanallarining samarali faoliyat yuritishi, ularga o'quv, metodik va

tashkiliy masalalar bo'yicha tezkor ko'mak ko'rsatish imkoniyatlari yaratilgani e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga to'liq javob berishi aniqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Inson resurslari yo'nalishi doirasida professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning malakasi hamda kasbiy rivojlanish tizimi atroflicha tahlil qilindi. Baholash natijalari ta'lim dasturini amalga oshirishga jami 25 nafar yuqori malakali professor-o'qituvchi jalb etilgani, ularning soni, ilmiy salohiyati va mutaxassislik yo'nalishlari mazkur bakalavriat ta'lim dasturini sifatli tashkil etish uchun yetarli ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirish, ularning ilmiy-pedagogik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish mexanizmlarining izchil amal qilayotgani baholandi. Tarix fanlari bo'yicha ilmiy darajaga ega kadrlar salohiyatining barqarorligi masofaviy ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlash, o'quv materiallari sifatini oshirish, ilmiy yondashuvlarni ta'lim mazmuniga samarali integratsiya qilish hamda talabalar uchun sifatli akademik muhitni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga mos ravishda yo'lga qo'yilgani qayd etildi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha mavjud infratuzilma, o'quv-resurs bazasi hamda ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi vositalar kompleks baholandi. Tahlil natijalari ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur o'quv binolari, amaliy mashg'ulot xonalari, Axborot-resurs markazlari hamda zamonaviy o'quv vositalari bilan ta'minlanganlik darajasi belgilangan talablarga javob berishini ko'rsatdi. Shuningdek, masofaviy ta'lim platformasi va elektron axborot-resurslarining magistrantlar emas, bakalavriat talabalari ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilgani, o'quv materiallaridan masofadan turib samarali foydalanish hamda ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgani baholandi. Elektron manbalar fondining muntazam yangilanib borilishi va raqamli infratuzilmaning barqaror faoliyat yuritishi masofaviy ta'lim sifatini ta'minlash, talabalarining mustaqil ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash hamda belgilangan o'quv natijalariga samarali erishishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Baholash yakunlariga ko'ra, moddiy-texnik ta'minot tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga mosligi bilan tavsiflandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Xalqaro hamkorlik va akademik almashinuv imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.
- ✓ Ayrim fanlar bo'yicha eng so'nggi yillarda nashr etilgan o'quv adabiyotlari ulushini oshirish talab etiladi.
- ✓ Masofaviy shakl bo'yicha amaliy statistik ma'lumotlar bazasi endigina shakllanmoqda.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Xalqaro hamkorlik, qo'shma dasturlar va akademik almashinuv imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish.
- ✓ O'quv adabiyotlari va elektron resurslar fondini muntazam yangilab borish.
- ✓ Masofaviy ta'lim jarayonlari bo'yicha analitik hisobotlarni tizimli shakllantirish.
- ✓ Amaliyotchi mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etishni davom ettirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 60220300 – “Tarix” bakalavriat ta'lim dasturi (masofaviy shakl) bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. O'rganish natijalari ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi samarali shakllantirilgani, dastur davlat ta'lim standarti, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgani, o'quv jarayoni shaffof baholash mexanizmlari va akademik halollik tamoyillari asosida tashkil etilgani, talabalarni qabul qilish hamda qo'llab-quvvatlash tartiblari izchil yo'lga qo'yilgani, professor-o'qituvchilar salohiyati, masofaviy ta'lim platformasi, elektron axborot-resurslari va zarur infratuzilmaning ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli darajada ta'minlangani ko'rsatdi. Baholash yakunlariga ko'ra, 6 ta yo'nalish bo'yicha baholangan barcha 27 ta mezon muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim kamchiliklar

ta'lim dasturining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan hamda ularni takomillashtirish choralari orqali bartaraf etish mumkin bo'lgan tavsiyaviy xususiyatga ega ekanligi qayd qilindi. Umuman olganda, bakalavriat ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlarida belgilangan barcha talablarga muvofiqligi asoslandi va u muvofiq deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

